

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TAILIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

O'quv ishlarini bo'yicha

prorektor:

R.To'rayev

2024-yil

08

Ro'yxatga olingan MD-70230104-1.03

**NAZARIY POETIKA**

**FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230 000 - Tillar

Mutaxassislik: 70230104 - Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Termiz – 2024

| Fan/modul kodi<br><i>NP105</i> | O'quv yili<br>2024-2025   | Semestr<br>1                           | ECTS - Kreditlar<br>5        |                           |
|--------------------------------|---|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul turi<br>Majburiy     | Ta'lim tili<br>O'zbek   |  | Haftadagi dars soatlari<br>4 |                           |
| 1.                             | Fanning nomi  | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) | Mustaqil<br>ta'lim (soat)    | Jami<br>yuklama<br>(soat) |
|                                | Nazariy poetika   | 60 soat                                | 90 soat                      | 150 soat                  |
| 2.                             | <p><b>I. Fanning mazmuni.</b> Mazkur dastur nazariy poetika fanining dolzarb muammolari, ma'lum davr adabiy-madaniy muhitining o'ziga xosligi haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot berishi bilan dolzarbdir. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan muammolarining milliy ma'naviyat va qadriyat masalalari bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Ajdodlar merosining tarixiy poetikaga bog'liq holda o'rganilishi talabalarni ma'naviyatga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad.</b> Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi - badiiy asami tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> adabiyotshunoslik metodlarining tarixi, asoschilari va asosiy ilmiy tamoyillarini o'rgatish, adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini o'rgatish, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan adabiyotshunoslik metodologiyasi orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish, gernevikaning metodologik imkoniyatlarini ochib berish, jahon adabiyotshunoslari, rus va o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini aniqlashga o'rgatish, talabada estetik didni, badiiy so'zni his etish ko'nikmasini hosil qilish, adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish, egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish</p> |  |                              |                           |

yo'lida amaliyotga tatbiq etish kabilardir.

## **II. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu: Poetika adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fan**

Poetika keng ma'noda adabiyot nazariyasi, keng ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta'limot. Poetika adabiyotni san'at hodisasi sifatida o'rganuvchi fan. Adabiyot-san'atning bir turi. Og'zaki va yozma adabiyot. Badiiy adabiyot va ijtimoiy hayot. Tazkira Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy- tanqidiy janr.

#### **2-mavzu: Qadimgi davr adabiyotshunosligi**

Ilk poetik qarashlar. Yunon ilmida poetika. Arastuning "Poetika" asari. Qadimgi Rim adabiyotshunosligi. Qadimgi hind ilmida adabiyotshunoslik. Arab manbaalarida adabiyotshunoslikka oid qarashlar. Fors manbaalarda adabiyotshunoslikka oid ilmlar. Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslikka oid ilk qarashlar.

#### **3-mavzu: Badiiy adabiyot va ijtimoiy hayot.**

Shoirni shoir, yozuvchini yozuvchi qiladigan narsa – xalq va uning hayoti: tarixi, ruhiyati, o'zligi. Shu bois ham yoziladigan asarlarning barchasi xalq hayotidan oziqlanadi va xalqning barcha vakillari uchun "hayotiy darslik" tarzida bitiladi.

#### **4-mavzu: Badiiy asarning tarkibiy qismlari**

Shakl va mazmun. Mavzu va g'oya. Syujet va kompozitsiya. Syujet - qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi. Ekspozitsiya, voqealar tuguni, voqealar rivoji, voqealarning avj nuqtasi, voqealar echimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula-asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqea-hodisalar. Hayotiy voqealarga asoslangan syujetlar. Syujetda badiiy to'qimaning ahamiyati. Epigraf, epilog, so'z boshi, so'ngso'z, prolog, remarka.

### **5-mavzu: Shakl va mazmun.**

Shakl va mazmun uyg'unligi. Shakl va mazmun unsurlari. Mavzu va g'oya. Syujet va kompozitsiya. Syujet - qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi. Ekspozitsiya, voqealar tuguni, voqealar rivoji, voqealarning avj nuqtasi, voqealar echimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula- asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqea-hodisalar. Hayotiy voqealarga asoslangan syujetlar. Syujetda badiiy to'qimaning ahamiyati. Epigraf, epilog, so'z boshi, so'ngso'z, prolog, remarka.

### **6-mavzu: Inson adabiyotning asosiy qahramoni**

Obraz- ijodkor yaratgan inson dunyosining umumlashgan tasviri. Realistik, romantik, xayoliy-fantastik, majoziy-ramziy obrazlar. Adabiy qahramon, aksilqahramon, lirik qahramon, asosiy personaj, ikkirchi darajali personaj, xarakter, badiiy obraz turlari. Ideal - estetika, jumladan, adabiyotshunoslikning muhim ilmiy kategoriyalaridan biri, go'zallik, estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami.

### **7-mavzu: Badiiy matn strukturasi**

Badiiy matn tahlil obyekti sifatida. Strukturaning obyektiv va subyektiv asoslanishi. Badiiy matnning tashqi tashkillanishi. Badiiy matnning ichki strukturasi. Ifoda shakllari (nash va nazmda) da konkretlilik. She'riy va nasriy matn o'ziga xosligi, ularga yondashuvdagi farqlilik.

### **8-mavzu: Adabiy qahramon portreti**

Portret personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari. tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Peyzaj - adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interer)tasviri. Xronotop. Peyzaj - adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti.

### **9-mavzu: Badiiy asarda zamon va makon tasviri**

Poetika ilmidagi zamon va makon tushunchasi. Zamon va makonning biri biriga uyg'unligi. Voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interer)tasviri. Xronotop. Baxtinning xronotopga oid qarashlari. Badiiy asarda zamonni ifodalovchi vositalar. Badiiy asarda joy (makon)ni ifodalovchi vositalar. Zamon va makon tasvirini mukammal ifodalagan adiblar.

### **10-mavzu: Badiiy asar tili**

Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. Badiiy tasvir va ifoda vositalari, Ma'naviy san'atlar, lafziy san'atlar. Dialog - ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat; adabiy-badiiy matn komponenti, asardagi personaj laming nutqiy muloqoti berilgan o'rinlar. Monolog - yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o'zgarar replikalari bilan bo'linmagan nutqi.

### **11-mavzu: She'r tuzilishi**

Sharq adabiyotidagi she'r shakllari. G'arb adabiyotidagi she'r janrlari. She'ring tarkibiy qismlari:ritm. bo'g'in. turoq. vazn. qofiya, raviy, radif. Sharq she'rshunosligi (ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badea. ma'naviy, lafziy san'atlar). Aruz she'r tizimi. Barmoq she'r tizimi. Erkin, sarbast. oq she'r.

### **12-mavzu: Adabiy turlar**

Adabiy turlarning shakllanishidagi ilk qarashlar. Badiiy adabiyotning adabiy turlar tizimi. Adabiy turlar nazariyasining evolutsiyasi: Arastu hakim, Gegel, Belinskiy. O'zbek adabiyotshunosligida adabiy turlarning o'rganilish tarixi. Epik tur. Lirik tur. Drama turi.

### **13-mavzu: Adabiy janrlar poetikasi**

Roman, qissa, hikoya janrlari. G'azal, ruboiy, tuyuq kabi she'riy janrlar. Tragediya. drama, komediya janrlari. Xalq og'zaki ijodi janrlari.

### **14-mavzu: Ijodiy metod**

Adabiy yo'nalish - adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya. Adabiy yo'nalish hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, metod va uslub tushunchalari bilan bevosita bog'liq holda, badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga kelishi. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm. Klassitsizm

yoʻnalishi. Sentimentalizm, naturalizm, syurrealizm, ekzistensializm, simbolizm. Modern adabiyoti. Adabi y oqim - adabiy jarayon bilan bogʻliq kategoriya, muayyan davr adabiyotidagi adabiy yoʻnalishning bir koʻrinishi, oʻziga xos bir varianti.

### 15-mavzu: Ijodkor uslubi

3. Uslub - poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asaming u yoki bu tarzidagi shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. Uslub - ijodkoming detal qoʻllash, jumla tuzish, voqelikka yondashish bilan bogʻliq dunyoqarashini aks ettiruvchi, uning shaxsini ifodalovchi, adabiy jarayon bilan bogʻliq hodisa.

### III. Amaliy mashgʻulotlar boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

#### Amaliy mashgʻulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi davr adabiyotshunosligi
2. Aristotel, Forobiy, Navoiy, Boburning adabiyotshunoslikka doir asarlari
3. Sharq adabiyotshunosligi. Tazkiralalar. Aruz. Qofiya, sheʼriy sanʼatlarga bagʻishlangan risolalar.
4. Dostonlarning debochasi va ayrim boblarida, tarixiy asarlarda, nasihat-pandnomalarda badiiy asarlar xususida soʻz yuritilgani
5. Asar syujetida konfliktning ahamiyati. Konflikt koʻrinishlari: ijtimoiy konflikt, oilaviy-maishiy konflikt
6. Ichki ruhiy konflikt (ichki kolliziya)
7. Badiiy asarda personajlar portreti tasviri
8. Badiiy asarda zamon va makon tasviri
9. Adabiy til. Badiiy asar tili. Muallif tili, (dialog, monolog)
10. Sheʼr ritmini hosil qiluvchi boʻgʻin, turoq, vazn kabilar
11. Toʻliq, och, ichki qofiya, zulqofiyatayn. Rukn. Bahr. Band
12. Romanlarning mavzusi va bayon qilingan voqealarga koʻra turlari
13. Qissa. Hikoya. Ocherk. Feleton. Pamflet
14. Marosim qoʻshiqlari, alla, lapar, yor-yor. Mavsum qoʻshiqlari. Termalar
15. Gʻarb adabiyotidagi sheʼriy janrlar: bagʻishlov, epigramma, epigrafiya, elegiya, ekloga, Sonet, ballada

**Izoh:** Amaliy mashgʻulotlari talabalarni adabiyot nazariyasiga oid maʼlumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yoʻnaltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chogʻida

munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarida talabalar adabiyot nazariyasining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

“Nazariy poetika” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- kurs ishini tayyorlash;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogliq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi;
- amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.

#### **Mustaqil ta'lim uchun mavzular**

1. Aristotelning “Poetika” asarini o'qib o'rganish.
2. Forobiyning “She'r san'ati” asarini o'qib o'rganish.
3. Alisher Navoiyning “Majolis un nafois” asarini o'qib o'rganish.
4. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug'atayn” asarini o'qib o'rganish.
5. Alisher Navoiyning “Mezon ul avzon” asarini o'qib o'rganish.
6. Boburning “Muxtasar” asarini o'qib o'rganish.
7. Atoullou Husayniyning “Badoe us sanoe” asarini o'qib o'rganish.
8. Ahmad Taroziyning “Funun ul balog'a” asarini o'qib o'rganish.

9. Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarini o‘qib o‘rganish
10. Fitratning “Aruz haqida” asarini o‘qib o‘rganish
11. Mustaqillik yillarida she‘r vaznlariga doir ilmiy tadqiqot va asarlar katologini yig‘ish
12. V.G.Belinskiyning “Tanlangan asarlar” asarini o‘qib o‘rganish
13. V.G.Belinskiyning “Adabiy orzular” asarini o‘qib o‘rganish.
14. N.A.Dobrolyubovning “Adabiy-tanqidiy maqolalar” kitobini o‘qib o‘rganish.
15. N.G.Chernishevskiyning “Tanlangan adabiyot-tanqidiy maqolalar” kitobini o‘qib o‘rganish.
16. A.A.Potebnyaning “Теорическая поэтика” kitobini o‘qish va tegishli mavzular bo‘yicha konspektlashtirib borish
17. Nazariy poetika fanining ilmiy asoslanishi: N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, S.N.Broytman.
18. Adabiyotning vazifadorligi va estetik funksiyasi (Y.Boryev “Estetika”si asosida)
19. Badiiy diskurs tushunchasi va uning adabiyotdagi ko‘rinishlari (E.Xalizev)
20. Struktura, struktural tahlil, struktural poetika asoslari
21. Badiiy nutq va poetik til (V.Vinogradov, P.Qodirov)
22. Ijodiy individuallik va ijodkor shaxsi
23. Adabiy yo‘nalish va oqim uslubi
24. Badiiy adabiyotni adabiy turlar jihatidan tasniflash natijalari
25. A.Rasulovning “Badiylik bezavol yangilik” asarini o‘qish
26. Quronov D., Rahmonov B. “G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari” asarini o‘qish
27. H.Boltaboyevning “Sharq muumtoz poetikasi” kitobini o‘rganish
28. O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy turlar va janrlar masalasida olimlar qarashlari.
29. O‘zbek adabiyotida janrlar transformatsiyasi
30. Lirik qahramon va shoir munosabati

**Izoh:** Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta’lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

|    |  |
|----|--|
|    | <p style="text-align: center;"><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>– Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilar haqida <i>bilimlarga;</i></p> <p>– Adabiyotshunoslik ilmining nazariy asoslarini bilish, o'zbek va jahon adabiyotida qo'llangan ramz va timsollar mohiyatini anglash, badiiy adabiyot namunalari: she'riy, nasriy, dramatik va ilmiy asarlarni tahlil qila olish <i>ko'nikmalariga;</i></p> <p>– Badiiy asarni tahlil qila bilish, ilmiy tezis va maqolalar yozish, jahon adabiyotshunosligi va sharq mumtoz poetikasining taraqqiyot tamoyillari hamda asosiy xususiyatlari haqida ongli tahlil qila olish, yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablari haqida <i>malakaga ega bo'ladilar.</i></p> |
| 4. | <p style="text-align: center;"><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>   |
| 5. | <p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>  |
| 6. | <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. - T.: Yangi asr avlodi. 2004.</li> <li>2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T. Akademnashr. 2018.</li> <li>3. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jild. - T.: "Mumtoz so'z", 2016</li> <li>4. Sul-tonov I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 2005</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. T.: O'zbekiston, 2014.</li> </ol>   |

|    |  |
|----|--|
|    | <p>2. Jahon adiblari adabiyot haqida. - T.: Ma'naviyat, 2010.</p> <p>3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. T. Akademnashr. 2014.</p> <p>4. Normatov U. Ijod sehri. T. Sharq. 2007.</p> <p>5. Adabiy tanqidi tarixi. Antalogiya. T. Turon iqbol. 2012.</p> <p>6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - T.: Akademnashr, 2010.</p> <p>7. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. G'. G'ulom nomidagi NMIU. 2018.</p> <p>8. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2007.</p> <p>9. Ulug'ov A. Qalb qandili. - T.: Akademnashr, 2013.</p> <p>10. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi. T. O'zbekiston. 1993.</p> <p><b>Elektron manbalar</b></p> <p>1. <a href="http://www.literature.uz">http://www.literature.uz</a></p> <p>2. <a href="http://www.zivonet.uz">http://www.zivonet.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.natlib.uz">http://www.natlib.uz</a></p> <p>4. <a href="http://www.zivouz.com">http://www.zivouz.com</a></p> <p>5. <a href="http://www.turonlib.uz">http://www.turonlib.uz</a></p> |
| 7. | <p>O'quv dastur Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Kengashning 2023 yil "30" 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan, Termiz davlat universiteti Kengashning 2024 yil "30" 08 dagi 1 -sonli qarori bilan ma'qullangan.</p>   |
| 8. | <p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b></p> <p>Yuldashev N. - Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsent, filologiya fanlari nomzodi</p>   |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Quronov D. - Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori</p> <p>Nosirov A. N. - Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi</p>   |